

METR VA O'LCHOVLAR

METR VA O'LCHOVLAR

- REJA
- Oddiy metrlar va o'lchovlar. Oddiy o'lchovli taktlarda cho'zimlarning turkumlanishi
- Murakkab metrlar va o'lchovlar. Murakkab o'lchovli taktlarda cho'zimlarning turkumlanishi
- Aralash metr va o'lchovlar. Aralash o'lchovli taktlarda cho'zimlarning turkumlanishi
- O'zgaruvchan o'lchovlar




- Musiqa amaliyotida kuchli hissalar har bir hissadan keyin bir tekisda takrorlanib turadigan metrlar *ikki hissali metrlar* deyiladi.
- Kuchli hissalar har ikki hissadan keyin takrorlanib turadigan metrlar esa uch hissali metrlar deyiladi.

Ularning o'lchovlari ham shu tarzda bo'lsa, bularga oddiy o'lchovlar deyiladi. Oddiy o'lchovlarga quyidagilar kiradi:

- a) ikki hissali o'lchovlar:

$$\frac{2}{2}; \frac{2}{4}; \frac{2}{8}; \frac{2}{16}.$$

- $\frac{2}{2}$ o'lchovi **alla breve** deb yuritiladi va



- belgisi bilan ko'rsatiladi.


- b) uch hissali o'lchovlar:

$$\frac{3}{2}, \frac{3}{4}, \frac{3}{8}$$

- $\frac{3}{16}$ o'lchovi nisbatan kam uchraydi.

Agar bir takt ichida ritmlar turkumlansa, unga ***cho'zimlar turkumlanishi*** deyiladi.


Oddiy o'lchovlardagi cho'zimlar turkumlanganda, taktning asosiy hissalarini bir-biridan ajratiladi.

Masalan: Musical notation example showing a change in meter. The first part is in 2/4 time, and the second part is in 3/4 time. The notation consists of a single staff with a treble clef, showing a sequence of notes and rests that illustrate the change in meter.


Oddiy
o'lchovlardagi
cho'zimlar
turkumlanishi
tartibida quyidagi
istisnolarga yo'l
qo'yiladi:

Bir xil bo'lgan
barcha cho'zimlar
umumiy chiziq,
qovurg'acha ostiga
birlashtiriladi.

Masalan:



Cho'zimi butun bir taktni egallagan
tovush ligasiz, bir nota bilan yoziladi.



- Notalar qanday turkumlansa, pauzalar ham shunday turkumlanadi




Murakkab metrlar va o'lchovlar.

Bir xildagi oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida **murakkab metrlar** hosil bo'ladi.

Murakkab metr ikki va undan ham ko'proq oddiy metrlardan tarkib topishi mumkin.

Shuning uchun ham murakkab metrlar vaqt-vaqti bilan uchraydigan bir necha kuchli hissaga egadir.

Hamisha murakkab metrdagi kuchli vaqt hissasining soni uning tarkibidagi oddiy metrlar soniga teng bo'ladi.



Murakkab metr birinchi hissasining zarbi qolgan zarblarga nisbatan kuchliroq bo'ladi va shuning uchun bu hissaga **kuchli hissa**, unga nisbatan kuchsizroq bo'lgan hissaga esa, **nisbatan kuchli hissa** deyiladi.



Murakkab metrlarni ifodalovchi barcha o'lchovlar **murakkab o'lchovlar** deyiladi. Shu sababli murakkab metrlarning tarkibi borasidagi fikrlar murakkab o'lchovlarga ham taalluqlidir.




Murakkab metrlarni ifodalovchi eng ko'p qo'llaniladigan o'lchovlarga quyidagi murakkab o'lchovlar kiradi:

a) to'rt
hissali
o'lchovlar:

v) to'qqiz
hissali
o'lchovlar:

b) olti
hissali
o'lchovlar:

g) o'n ikki
hissali
o'lchovlar:



Murakkab o'lchovlarda turkumlash shundan iboratki, ularni tashkil etgan oddiy o'lchovlar umumiy ritmik turkumlarga birlashtirilmay, ayrim-ayrim mustaqil turkumlarga birlashtiriladi.

Agar tovush biror murakkab taktni butunligicha egallasa, umumiy cho'zimli tovush shaklida, biror nota bilan yoziladi.

Ba'zan esa, cho'zimli oddiy taktlarga teng keladigan, liga bilan birlashtirilgan notalar yordamida ham yozilishi mumkin.

Bu oxirgi usul murakkab o'lchovlarni turkumlash qoidasiga mos keladi.

Aralash metr va o'lchovlar.

Bu xildagi metrlar **aralash metrlar**, ularni ifodalovchi o'lchovlar esa **aralash o'lchovlar** deb ataladi.



Har qanday oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida murakkab metrlar hosil bo'ladi.



Ikki yoki bir necha har xil ko'rinishdagi oddiy metrlar birlashuvi natijasida murakkab aralash metrlar hosil bo'ladi.




Musiqada aralash o'lchovlar oddiy va murakkab o'lchovlarga qaraganda ancha kam uchraydi.

Bular orasida besh hissali va yetti hissali o'lchov ko'proq qo'llaniladi.


Ba'zida aralash o'lchovlarning boshqa xillari ham uchrashi mumkin.

Masalan: $\frac{11}{4}$.

Aralash o'lchovlar murakkab o'lchovlardan ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi.




Aralash o'lchovlarning tuzilishi ularni hosil qiladigan oddiy o'lchovlarning ketma-ket kelishiga bog'liqdir.




Bu esa, kuchli va nisbatan kuchli hissalarining almashinib turishiga ham ta'sir etadi:

Taktning kuchli va nisbatan kuchli hissalarining almashinib turishi tekis bormaydi. Masalan: a) besh hissali o'lchovlar:



- Yuqoridagi birinchi misolda aktsent taktning birinchi va uchinchi hissalariga, ikkinchi misolda esa taktning birinchi va to'rtinchi hissalariga to'g'ri keladi. b) yetti hissali o'lchovlar:

The image shows two musical staves, each representing a 7-beat measure. The top staff is labeled with a 7/4 time signature and a bracketed subdivision of (3+2+2). It contains seven quarter notes, with accents (>) placed under the first, third, fifth, and seventh notes. The bottom staff is labeled with a 7/4 time signature and a bracketed subdivision of (2+2+3). It also contains seven quarter notes, with accents (>) placed under the first, second, fourth, and seventh notes.



Bunda birinchi misolda kuchli zarb taktning birinchi, to'rtinchi va oltinchi hissalariga, ikkinchi misolda esa taktning birinchi, uchinchi va beshinchi hissalariga to'g'ri kelmoqda. Ayrim vaqtlarda bir musiqa asari ichida aralash o'lchovni hosil qiladigan o'lchovlarning almashinish tartibi o'zgarib ham turadi.

Aralash o'lchovli notalarni o'qish qulay bo'lishi uchun, ba'zida o'lchovni ko'rsatuvchi asosiy raqam yoniga qavs ham yoziladi. Bundan tashqari, ba'zan taktga oddiy o'lchovlar boshlanishini ko'rsatuvchi punktir bilan qo'shimcha takt chizig'i yoziladi.

Murakkab o'lchovli cho'zimlar qanday turkumlansa, aralash o'lchovli cho'zimlar ham shunday turkumlanadi. Aralash o'lchovli cho'zimlar turkumlanishining xususiyati shuki, aralash o'lchovlar tarkibiga kiradigan har xil ko'rinishdagi oddiy o'lchovlarning ritmik turkumlari teng bo'lmaydi.

O'zgaruvchan o'lchovlar

Musiqada bir asar davomida metrning, ayni paytda o'lchovning ham o'zgarib turish hollari uchraydi.

Bunday o'lchovlar *o'zgaruvchan o'lchovlar* deyiladi. O'zgaruvchan o'lchovlarni xalq qo'shiqlarida va boshqa turli musiqa asarlarida uchratish mumkin.

- O'lchovlar tekis va notekis almashinadilar. O'lchovlar tekis almasha, kalit belgisi yoniga kasr shaklida ikkita raqam qo'yiladi. O'lchovlar notekis almashib tursa, nota matnida o'lchovlarning har bir o'zgarishi yozib qo'yiladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, bu xildagi takt tuzilishi musiqada deyarli uchramaydi.
- Musiqada xilma-xil metrlarning birdaniga (ustma-ust) kelishi ham uchraydi, bunga **polimetriya** deyiladi. Polimetriyaning tub xususiyati musiqa asarlaridagi ayrim ovoz (partiya)larning xilma-xil metr o'lchovi bilan ifodalanishidir. Bunda metr aktsentlari birbirlariga mos tushishi va mos tushmasligi ham mumkin.